

**Xamrayeva N.  
Osiyo texnologiyalari universiteti**

---

## **ABULG‘OZIXONNING HAYOTI VA SIYOSIY FAOLIYATI (XIVA XONLIGI XVII ASRNING IKKINCHI YARMIGACHA BO‘LGAN DAVRDA)**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Abulg‘ozi Bahodirxonning Xiva xonligining ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotida tutgan o‘rni, ichki siyosatda o‘zaro ichki nizolarni bartaraf etish, tashqi siyosatda Buxoro amirligi bilan olib borgan harbiy harakatlari yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Xiva xonligi, Abulg‘ozi Bahodirxon, etnik guruhlar, ichki nizolar, qalmiqlar, Buxoro amirligi, harbiy yurishlar.

**Аннотация:** В этой статье описывается роль Абулгази Баходирхана в социальной, политической и экономической жизни Хивинского ханства, устранение внутренних конфликтов во внутренней политике, его военные действия с Бухарским эмирата во внешней политике.

**Ключевые слова:** Хивинское ханство, Абулгази Баходирхан, этнические группы, внутренние конфликты, калмыки, Бухарский эмират, военные кампании

**Annotation:** This article describes the role of Abulgazi Bakhodirkhan in the social, political and economic life of the Khiva Khanate, the elimination of internal conflicts in domestic politics, his military operations with the Bukhara emirate in foreign policy

**Keywords:** Khiva Khanate, Abulgazi Bakhodirkhan, ethnic groups, internal conflicts, Kalmyks, Bukhara emirate, military campaigns

---

Abulg‘ozi Bahodirxon ibn Arabmuhammadxon olim, tarixnavis, adib, tabib, shoir va davlat arbobi sifatida jahon ilm-fani, ayniqsa o‘zbek xalqi madaniyati taraqqiyotiga katta hissa qo‘sghan shaxslardan biridir. Abulg‘ozi Bahodirxon Xorazm hukmdori Arab Muxammadxonning to‘rtinchı o‘g‘li bo‘lib, o‘zining “Shajarayi turk” asarida tarjimai holiga oid atroflicha ma’lumotlarni keltirgan. Abulg‘ozixon haqidagi Munis va Ogahiy tomonidan berilgan ba’zi biografik ma’lumotlar esa chamasi “Shajarayi turk”dan olingan[1:7].

Abulg‘ozixon “Shajarayi turk” asarida o‘zi haqida shunday deb yozgan: “Bu faqirg‘a, – xudoyi taolo inoyat qilib ko‘p nimarsa bergan turur. Xususan uch hunar bergan turur: Avval sipohiygarlikning qonuni va yo‘sunikim nechuk otlanmoq va yurumak va yovg‘a yosoq yasamoq, ko‘p birlan yuruganda nechuk qilmoq do‘stg‘a, dushmanq‘a nechuk so‘zlashoq. Ikkinchi masnaviyot va qasoid va g‘azaliyot va muqatta’ot va ruboiyot va barcha ash’orni fahmlamaklik, arabiylar va forsiylar va turkiylar lug‘atlarning ma’nosini bilmaklik. Uchinchi, odam aqdindin, to bu damg‘acha Arabiston, Eron va Turonda va Mo‘g‘uliston o‘tgan podshohlarning otlari va ularning va saltanatlarining kam yoki ziyodin bilmaklik”[2:12].... Abulg‘ozixonning otasi Arab Muhammadxon, onasi Mehribonu xonim bo‘lib, Jong‘ozi sultonning qizi bo‘lgan. U 6 yoshiga kirganda onasi vafot etadi. Abulg‘ozixon 16 yoshigacha Urganchda otasi qo‘lida tarbiyalangan. Keyinchalik uni uylantirib qo‘yishadi va unga Urganch yerlarining yarmini boshqarishni topshirishadi. Shaharning qolgan yarmi esa akasi Habashga berilgan [168].

Arab Muhammadxonning o‘zi esa Xivaga ko‘chadi, chunki bu paytga kelib Amudaryo o‘z o‘zanini o‘zgartirib, Urganchdan chekingan va o‘zining ilgarigi ahamiyatini yo‘qotgan edi.

Xiva xonligi XVII asr boshlarida xonlik aholisining keng tabaqalarini qamragan o‘zaro ota-bola va aka-ukalar o‘rtasidagi shafqatsiz taxt uchun kurashlar domida qolgan edi. O‘zbek va turkmanlarning turli etnik guruhlari va ularning sardorlarining o‘z tarafdrorlari bilan o‘zaro urushlarda ishtirok etib, taxtga o‘z nomzodlarini o‘tqazishga intilishlari va shu yo‘l bilan ko‘proq imtiyoz hamda imkoniyatlarni qo‘lga kiritishga urinishlari bu kurashlarning ko‘lamini kengaytirishi bilan bir qatorda keskin tus olishiga sabab bo‘lgan. Natijada, mamlakatda xo‘jalik hayoti izdan chiqib, ichki va tashqi savdo-sotiq xajmlari qisqarib ketdi va ishlab chiqaruvchi kuchlarning taraqqiyoti to‘xtab qoldi. Ichki urushlar Abulg‘ozzi Xiva taxtiga o‘tirgunga qadar (1645 yil) davom etdi. Abulg‘ozining katta akalari va uning o‘zi ham bu kurashda bevosita ishtirok etdi.

Arab Muhammadxon esa imkon qadar qo‘shni davlatlar bilan tinch munosabatlarni saqlab turishga harakat qilayotgan edi. Ikkita kuchli o‘zbek urug‘lari naymanlar va uyg‘urlarning rahbarlari tomonidan qo‘llab-quvvatlangan va turli yo‘llar bilan aholining kattagina qismini o‘zlariga og‘dirib olishga muvaffaq bo‘lgan Habash va Elbars sultonlar otasi va akalari bilan ochiq jangga kirishadi.

Bir guruh hokimiyatparast o‘zbeklar tomonidan gijgijlanib, “hokimiyatparastlik sharobi bilan sarmast qilingan” Habash va Elbars sultonlar birinchi marta Arab Muhammadga qarshi isyon qilishganda ularning birinchisi o‘n olti, ikkinchisi esa o‘n to‘rt yoshda bo‘lgan. Bu voqeя 1616 yil Arab Muhammadxon Urganchga jo‘nab ketgan paytda Xivada sodir bo‘lgan.

Isyonkor o‘g‘illari qo‘l ostida go‘yoki katta kuch yig‘ilganidan cho‘chigan Arab Muhammadxon Vazir shahrini ularning ixtiyoriga berishga majbur bo‘ladi. Shundan so‘ng Habash va Elbars besh yilgacha otalarining istagiga qarshi yurmaydilar. Oltinchi yilga o‘tib Elbars Obivardga xujum qilish bahonasi bilan Vazirdan chiqadi va Sog‘cha qudug‘i atrofida qo‘shin to‘plab, Arab Muhammadxon yo‘qligida Xivaga bostirib kiradi [2:162]. Arab Muhammadxon esa bu paytda Reshtobon Ota ziyorargohida bo‘lgan. Elbars otasi tomonidan o‘ttiz yil davomida yig‘ilgan davlat g‘aznasini qo‘lga kiritib, Arab Muhammadxonga xizmat qilganbeklarning mol-mulkini talon-taroj qilgach, o‘z qarorgohiga qaytadi.

Elbars qilgan ishdan xabar topgan Hazoraspdagи Asfandiyor sulton, Urganchda bo‘lgan Habash, Abulg‘ozzi va Sharif Muhammadlar otasiga yordamga borishga qaror qilishadi. Biroq Elbars o‘zi tushib qolgan og‘ir vaziyat sabab nojo‘ya ish qilib qo‘yishi, ya’ni otasini o‘ldirib qo‘yishi mumkin degan gumonga borib oqsoqollar ularni bu fikrdan qaytarishadi. Ammo vaziyat o‘zgarib, Elbars Xivadan ketadi va xonning hayoti xatardan xoli bo‘ladi. Isfandiyor va Arab Muhammadxon o‘z qo‘shinlari bilan yuqorida nomlari keltirilgan boshqa shaxzodalarga qo‘shilishadi va Elbarsga qarshi jangga otlanishadi. Elbars esa jang qilishga qurbi kelmay qochib qoladi.

Abulg‘ozzi Elbars va Habashdan qutulish uchun otasiga maslahat solib: “Habash sulton va Elbars sultonni o‘ldirishga buyruq bering...[2:163]” deydi. Biroq Arab Muhammadxon Abulg‘ozining maslahatiga qulqoq tutmaydi. Abulg‘ozining bu maslahatidan tasodifan xabar topgan Isfandiyor sultonning navkarlaridan biri bu gapni Habashga yetkazadi.

Arab Muhammadxon Xivaga qaytadi, Isfandiyor sulton esa Hazoraspiga jo‘naydi. Habash Elbarsga otasi va katta akasining yo‘lga chiqqanini xabar berib, uni Vazirga imkon qadar tezroq qaytishga chaqiradi. Abulg‘ozzi o‘z siri fosh bo‘lgani bilgach, o‘z dushmanlari orasida qololmaydi va unga Qiyot viloyatini in’om qilgan otasining huzuriga ketadi.

N.N. Palmovning taxminiga ko‘ra[4:Nº63], “Abulg‘ozzi qalmiqlar ichida o‘tkazgan yil 1640 yil dekabridan 1641 yil dekabrigacha bo‘lgan muddat bilan belgilanadi”. Bu holatda uning “o‘z yurti”ga yetib kelish sanasi yana 1642 yilga to‘g‘ri kelib, bu Abulg‘ozining o‘z ko‘rsatmasiga zid kelib qolmoqda. Albatta, Abulg‘ozzi to‘g‘ridan-to‘g‘ri tashlab ketilgan va ziflashib qolgan Urganchga emas, balki hali 1627 yildayoq Orolda, aniqrog‘i Amudaryo deltasida yig‘ilgan, o‘zi har doim yaxshi munosabatda bo‘lgan va Isfandiyorxonning hukmronligini tan olmagan 3000 chodirli o‘zbeklarga qaytadi[5:608]. Munis va Ogahiy: “...orol o‘zbeklari qalmoq xoniga katta miqdordagi sovg‘alar olib borib, Abulg‘ozini o‘zlarini bilan olib ketishgan”[6:90], deya ochiq-oydin aytishgan. Shundan keyin Abulg‘ozzi turkman zodagonlari va Isfandiyor bilan ochiq kurashga kirishadi.

Tashqi siyosatda Buxoro xonligiga munosabat – Abulg‘ozixonning diqqat markazida bo‘ldi. Buxoro va Xiva xonligi o‘rtasidagi kelishmovchilik asosan O‘rta Osiyoda, Janubiy Turkmaniston va Xurosonda o‘z ta’sirini kuchaytirish masalasida kelib chiqayotgan edi. Ular bir-birlarini kuchsizlantirib, harbiy ustunlikni o‘z qo‘liga olish uchun doimo harakat qilib kelganlar.

Abulg‘ozixon xuddi ana shu maqsadda o‘z hukumronligi davrida Buxoro xonligiga qarshi 7 martaba harbiy yurish uyushtirgan edi. Abulg‘ozixon Buxoro xoni Abdulazizxon bilan uning inisi Subxonquli o‘rtasida yuz bergen o‘zaro kurashdan foydalandi. U katta qo‘sish bilan Buxoroga qarshi yurish qildi, uning Markaziy va Shimoli-G‘arbiy viloyatlariga bostirib kirdi. Xiva qo‘sishlari ayniqsa Buxoro atrofini, Qorako‘l, Chorjo‘y, Vardanziy, Karmana shaharlari hamda shu atrofdagi qishloqlarni shafqatsiz taladilar va vayron qildilar. Ular har gal Xivaga behisob o‘ljalar va asirlar bilan qaytdilar[2:165-168]. Abulg‘ozixonning Buxoroga oxirgi yurishi 1662 yilga to‘g‘ri keladi. Abulg‘ozixon Xiva xonligining janubiy va janubi-g‘arbiy chegaralarini kengaytirish bilan, unga tashqaridan bo‘layotgan hujumlarni bartaraf etishda ham ancha ishlarni qildi.

O‘sha davrda qalmoqlarning Xorazmga shimoldan uyushtirilgan ikkita yurishi to‘xtatildi va ularga zarba berildi. Qalmoqlar Xorazmning janubiy viloyatlarigacha hujum qilib hatto Yangi-Urganch, Kot, Hazorasp va Darg‘on-otagacha bo‘lgan joylarni talab ketar edilar[2:182-184]. Abulg‘ozixonning kuchli zarbasidan so‘ng qalmoqlar o‘zlarini ancha vaqtgacha o‘nglay olmadilar. Shundan so‘ng xonlikning Shimoli-G‘arbiy chegaralari mustahkamlandi va bu yerda qator harbiy istehkomlar barpo etildi.

Abulg‘ozixon Xiva xonlari orasida o‘ta tadbirkorligi, tashkilotchiligi va bilimdonligi bilan ajralib turadi. U o‘z davrining keng bilimli kishilaridan bo‘lib, turkman, fors-tojik, arab va mo‘g‘ul tillarini yaxshi bilgan. Abulg‘ozixon va so‘ngra uning o‘g‘li Anushaxon xonlikni markazlashtirish, boshqarishni takomillashtirish va mamlakat iqtisodini rivojlantirish ishlariga alohida hissa qo‘sghan hukmdorlardan hisoblanadilar.

Abulg‘ozixon hokimiyat tepasiga kelgan birinchi kundan boshlab asosiy e’tiborni davlatni mustahkamlash masalasiga qaratdi. U turkman zadagonlarini davlat boshqaruvi ishlaridan chetlashtirdi. Ularning qo‘llaridagi molu-mulklarini, yer-suvarini tortib olib, o‘zlarini xonlik ichkarisidan quvg‘in qildi. Turkmanlar Xurosonga, Janubiy Turkmanistonga, Abulxon va Mangishloqqa ko‘chib ketishga majbur bo‘ldilar[6:91]. Xonlikning barcha yuqori lavozimlari o‘zbek hukmdorlari qo‘liga topshirildi. Xiva tarixchisi Munisning ko‘rsatishicha, Abulg‘ozixon ma’muriy islohot o‘tkazib, xonlikning markaziy boshqaruv tizimini batamom yangidan tashkil etdi. U o‘zbek zodagonlaridan 360 kishinixonlikning turli lavozimlariga tayinladi. Shulardan eng obro‘li 32 kishiga saroyda o‘z yonidan o‘rin berdi. Ular xonning yaqin maslahatchilari bo‘ldilar. Shuningdek, saroyda 32 ta markaziy boshqaruv lavozimlarini tashkil etib, ular quyidagicha taqsim etiladi: 2 ta shayxulislom, 1 ta mutavalli, 1 ta noib, 4 ta otalik, 4 ta inoq, 4 ta mirob, 4 ta biy, 1 ta parvonachi, 2 ta aka, 2 ta arbob, 4 ta chig‘atoy-inoqi, 1 ta vazir (u mehtar deb yuritilgan)

va yana 1 ta qushbegi lavozimlaridir. Shu bilan Abulg‘ozixon o‘zbeklarni va yerli aholining nufuzli vakillarini davlat boshqaruv ishlariga jalb etib, ular orasida ma’lum barqarorlikni vujudga keltirdi. Davlat hokimiyatini mustahkamlanishi Abulg‘ozixonga ichki va tashqi siyosatni keng ko‘lamda amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Yuqoridagilar asosida, Abulg‘ozixon o‘zining 60 yil umridan 20 yilini muxojirlikda va qolgan 20 yilini saltanat taxtida o‘tkazgan deb xulosa yasash mumkin. Uning faoliyati o‘g‘li Anushaxon tomonidan davom ettirildi. Abulg‘ozixon hali o‘zi hayotligi chog‘idayoq taxtni Anushaxonga (1663-1687) meros qoldirdi va olti oydan so‘ng olamdan ko‘z yumdi. Anushaxon otasi kabi jasur va tadbirkor podsholardan edi. Uning hukmronlik davrida Xiva xonligining mavqeい va qudrati yanada oshadi.

### **Foydalanaligan adabiyotlar.**

- 1.Кононов А.Н. Родословная туркмен. Сочинение Абул-Гази хана Хивинского – Москва– Ленинград, 1958. – Б.7.
- 2.Abulg‘oziy. Shajarayi turk. – B.12.
- 3.O‘sha joyda. – B.168.
- 4.Пальмов Н. Н. Абулгази в калмыцких кочевьях. Рукопись. ИВ АН СССР, Архив востоковедов, № 63.
- 5.Бартольд В.В. Очерк истории туркменского народа // Сочинения, том II, ч. I. – Москва: Наука, 1963. – С. 608.; Histoire des Mogols et des Etats par Aboul-Ghazi Béhâdour-khan, publiée, traduite et annotée par le Baron Desmaisons, t.I, Texte. – P.317.; Traduction. – P.31.
- 6.Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. – B.90.